



## FROM THE HISTORY OF THE SCIENTIFIC STUDY OF THE KASHKADARYA OASIS

**Muminov Bekzod Bakhtiyor o'glu**

Chief Specialist of the Cultural Heritage Agency,

Tel: +998 50 756 52 55

e-mail: [bekzodmuminov@gmail.com](mailto:bekzodmuminov@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19551470>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 12<sup>th</sup> April 2026

Online: 13<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

*Kashkadarya, cultural heritage, archaeology, Kesh, Nasaf, KATE, waqf property, Shakhrisabz, expedition, restoration.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the history of the study of cultural heritage sites in the Kashkadarya region in chronological order. The research is divided into three main stages, covering scientific investigations from the end of the 19th century to the present day. The article highlights the issues of waqf property during the Bukhara Emirate, the activities of archaeological expeditions during the Soviet period, particularly the Kesh Archaeological Topographic Expedition (KATE), and new methodological approaches during the years of independence. The current status of cultural heritage sites in the region and legal measures are also presented based on statistical data.*

## QASHQADARYO VOHASINING ILMIY JIHATDAN O'RGANILISHI TARIXIDAN

**Muminov Bekzod Baxtiyor o'g'li**

Madaniy meros agentligi bosh mutaxassisi, Tel: +998 50 756 52 55

e-mail: [bekzodmuminov@gmail.com](mailto:bekzodmuminov@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19551470>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 12<sup>th</sup> April 2026

Online: 13<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

*Qashqadaryo, madaniy meros, arxeologiya, Kesh, Nasaf, KATE, vaqf mulki, Shahrisabz, ekspeditsiya, restavratsiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasining ilmiy jihatdan o'rganilish tarixi xronologik tartibda tahlil qilingan. Tadqiqotlar uch asosiy bosqichga bo'lib o'rganilgan bo'lib, ular XIX asr oxiridan boshlab bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni qamrab oladi. Maqolada Buxoro amirligi davridagi vaqf mulklari, sovet davridagi arxeologik ekspeditsiyalar, xususan, Kesh arxeologik topografik ekspeditsiyasi (KATE) faoliyati va mustaqillik yillaridagi yangicha metodologik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, hududdagi madaniy meros obyektlarining bugungi holati va huquqiy choralar statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib o'tilgan.*

Qashqadaryo viloyatidagi madaniy meros obyektlarni muhofaza qilish,

foydalanish va tadqiq qilishni xronologik jihatdan uch davrga bo'lish mumkin.



Birinchi davrga o'rtasrlardan boshlanib, XIX asrning oxirgi choragidan XX asrning 40-yillarigacha bo'lgan davrdagi harakatlar, tadqiqotlar hamda madaniy meros obyektlarni asrash maqsadidagi tashkiliy ishlar kiradi. Bu davrdagi eng muhim jihatlardan biri 1930-yillarda ilk bora Qashqadaryo viloyatida Madaniy merosni asrash maqsadida Shahrisabz inspeksiyasini tashkil etilishi bilan xarakterlanadi.

Buxoro amirligi davrlarda masjidlar va madrasalarni bunyod etish, mavjudlarni asrash va ta'mirlash hamda maqsadli foydalanish masalasidagi ayrim manbalarda materiallar uchraydi. Masalan, Buxoro amirligi davrida Kitob tumanidagi Xujai Imkanagiy masjidi va xonaqohi, Yakkabog' tumanidagi Yodgori Vallam va Toshqurg'on qishlog'i masjidini bunyod etilganini keltirish mumkin. Ularning xarajatlarni uzviy ravishda ta'minlash maqsadida Vaqf yerlari ajratilib, doimiy moliyalash manbasi yaratilgan. Buxoroda Markaziy Osiyodagi dastlabki masjid va madrasalar ham vujudga kelgan. Vaqf yerlari Buxorodagi barcha foydalaniladigan yerlarning 25 foizini tashkil etgan. Bu yerlardan tushgan daromad amirlik davrida islom muassasalarining talab va ehtiyojlari uchun ishlatilgan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganidan keyin sovet hukumati vaqf yerlarini davlat mulkiga aylantirib, tushgan daromadni sovet maorifini rivojlantirish uchun sarflashgan[1].

Buxoroda vaqf mulkiga munosabatni Turkkommissiya, Turkbyuro kabi Markazning Favqulodda va Muxtor vakillik organlari Turkiston ASSRda vaqf masalasini hal qilish tajribasidan

foydalanib, vaqf mulklari bo'lgan bozorlar, do'konlar, karvonsaroylar, tegirmon, objuozlar, hammomlar va boshqalardan tushgan mablag'ni diniy va madaniy-ma'rifiy ishlarga ajratishgan. Diniy tashkilotlar vaqf mulklariga masjid, mozor, maqbara, xonaqoh, qorixona, hojixona va boshqalar kirgan, ulardan keladigan daromad diniy tashkilotlarga va ularning xizmatchilariga sarflangan. Madaniy-ma'rifiy vaqf mulklari – madrasa, maktablar, kasalxonalar, yetimxonalarni ta'mirlab, xizmatchilarini ta'minlash va hovuz-quduqlarni tozalab turish, ko'priklar, yo'llarni ta'mirlash va shu kabi ishlarga sarf etilgan[2].

Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy memorchilik va arxeologik yodgorliklarni o'rganish harakatlarini XIX asrning 70 yillaridan boshlangan. Dastlab tabiatshunos A.L.Kun, harbiy topograf N.A.Maev, V.V.Krestovskiy, D.N.Logofetni ilmiy faoliyati olib borgan hamda Kesh va Nasafini o'rtasrlardagi tarixini yozma manbalar asosida yoritishga sharqshunos olim V.V.Bartold katta hissa qo'shgan[3].

O'tgan asrning 20-yillari Turkkomstarisning topshirig'iga asosan arxeolog va sharqshunos A.Y.Yakubovskiy, o'lkashunos V.L.Vyatkin, me'morlar V.Dinike va B.N.Zasipkinlarning[4] tashrifi, tadqiqotlari, topografik o'lchamlari aks etgan ilmiy hisobotlari va ilmiy maqolalari Shahrisabz shahridagi me'moriy obidalari va shahar topografiyasini holatini aks ettirgan, bu faoliyat dastlabki ilmiy asosdagi tadqiqotlar bo'lgan.

1930-yillardan boshlab, to 1960-yillargacha Kesh vohasida bir qancha arxeologik tadqiqotlar ishlari olib borildi.



Bu davrda vohani asosan, Y.G'.G'ulomov, .K.Kabanov, T.M.Mirg'iyozov, V.L.Voronina, G.N.Gachanov va M.Y.Masson kabi tadqiqotchilar Qashqadaryoning yuqori oqimi hududida arxeologik kuzatish va qazishma ishlari olib bordilar[5].

Bu davrning eng muhim xususiyati O'rta Osiyoda universitetida Arxeologiya kafedrasining tashkil etilish bilan boshlanadi. Bu davrda ilk bora viloyatdagi arxeologik yodgorliklarni umumiy ro'yxati, xronologiyasi va svodini yaratish ishlarini boshlash bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, M.Y.Masson va G.A.Pugachenkovaning "Шахрисабз при Темуре и Улугбеке" monografiyasi davrning tavsifini beradigan asarlar hisoblanadi. Ushbu asrda ilk bora qadimgi Kesh Shahrisabz o'rnida emas, balki Kitob shahri o'rnida bo'lgani isbotlangan. Qashqadaryo viloyatini kompleks tarzda arxeologik yodgorliklarni o'rganish M.Y.Masson tomonidan 1963-yilda O'rta Osiyo Universitetining arxeologiya kafedrasida qoshida arxeologik topografik ekspeditsiyasini tashkil etilgani yangi pog'onaga ko'tardi. Dastlabki yillarda Ekspeditsiyani nomi Qashqadaryo arxeologik topografik ekspeditsiyasi deb nomlangan. Ammo, O'zbekistondagi arxeologlar Sovet davrida tashkil etilgan Qashqadaryo viloyatida qadimda va o'rta asrlarda ikki tarixiy viloyati mavjud bo'lgani va ular orasidagi tarixiy madaniy rang-baranglikni hisobga olinib, mazkur ekspeditsiya keyinchalik Qashqadaryo emas, balki Kesh arxeologik topografik ekspeditsiyasi deb nomlandi. KATE tarkibida ishlagan qadimshunoslar va san'atshunoslardan L.I.Rempel, N.I.Krasheninnikova, V.D.Jukov,

S.B.Lunina, Z.I.Usmanova, N.P.Stolyarova, R.R.Abdurasulov, G.Y.Dresvyanskaya, X.Duke, A.S.Sagdullaev, Y.B.Pruger, D.V.Chunixin, O.N.Lushpenko, A.Y.Groshev kabi tadqiqotchilar vohaning qadimgi va o'rta asrlardagi tarixi va madaniyatiga oid yirik ilmiy yangiliklar kashf etishdi. Asosan KATE viloyatdagi arxeologik yodgorliklarni umumiy ro'yxati, xronologiyasi va svodini yaratish ishlarga katta hissa qo'shdi.

Qashqadaryoni tadqiq etishda ikkinchi davr, 1963-1991-yillar muhim ahamiyatga ega. Bu yillarda KATE nafaqat Kitob-Shahrisabz hududi, balki qadimgi Keshning barcha rustoqlaridagi arxeologik yodgorliklarni topsh va tadqiq etish ishlarini boshlashgan. KATE faoliyati 1960-yillardan boshlab Qashqadaryoning qadimiy obidalari arxeologiyasini o'rganish keng qamrovli tus ola boshlaydi. S.Kabanov va X.Duke va L.I.Rempellar KATE bilan hamkorlikda, ammo Tarixi instituti xodimi sifatid tadqiqotlar olib borshigan bo'lsa, M.Massonning "maktabi" a'zolari N.I.Krasheninnikova, V.D.Jukov, S.B.Lunina, Z.I.Usmanova, N.P.Stolyarova, R.R.Abdurasulov, G.Y.Dresvyanskaya, A.S.Sagdullaev, Y.B.Pruger, D.V.Chunixin, O.N.Lushpenko, A.Y.Groshevlar tizimli ravishda xar yili arxeologik qazishmalar va arxeologik izlanishlar olib borgani bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida Qashqadaryo viloyatida arxeologik tadqiqotlarning yangi-to'rtinchi bosqichi boshlanadi. Bu davrdagi tadqiqot ishlari qisman arxeologik qazish ishlarini olib borish bilan birgalikda ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va yangicha metodologik



yondashuvdan iborat bo'lib, uning natijasida shaharlarning yoshini aniqlashga qaratiladi. Bu davrda A.S.Sagdullaev, E.V.Rtveladze, A.A.Raimkulov, R.X.Suleymanov, P.Nizae, A.Toshev, M.Xasanov, O.N.Lushpenko, B.Aminov, O'.Mavlonov, N.Xushvaqov, B.Mamadiev, A.Omelchenko, V.Shesternev, X.T.Sultanov[6] kabi tadqiqotchilar arxeologik izlanishlar olib bordilar. Hozirgi kunda ham Kesh-Shahrisabz vohasida arxeologik qazuv ishlarini davom ettirmoqda.

Shuningdek, vohasining ilmiy jihatdan o'rganishga oid mavjud adabiyotlarni uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh adabiyotlari. Chor Rossiyasining turli xil maqsadlarda kelgan sayohlar, tarixchilar, sharqshunoslar va me'morlarning kundaliklari, maqolalari va kitoblaridan iborat. Masalan, berilayotgan ma'lumotlardagi sistemaning yo'qligi, ularni uzuq-yuluqligi bilan xarakterlidir. Ikkinchi guruh adabiyotlari asosan sovetlar davriga to'g'ri kelib, chop etilgan turli maqola va monografiyalarda biz ko'rayotgan masalalarga qisman to'xtalib o'tishgan. Ammo, bu davrga kelib ancha qamrovi keng ishlarni paydo bo'lganligini sohaga alohida to'xtalishni ko'rish mumkin.

Ikkinchi guruh adabiyotlari. Qashqadaryo viloyatida joylashgan yodgorliklarni ilmiy tadqiqotlar olib borilishi bo'yicha alohida ilmiy izlanishlarga muhtoj edi. Chunki, bunday ishlarning yetishmasligi natijasida arxeologlar qazishayotgan obyektlarning davrini aniqlashda turli qiyinchiliklarga duch kelishar edi. Natijada Qashqadaryo vohasi bo'yicha ko'plab monografiya va

dissertatsiyalar yozildi[7]. Lekin, bu ilmiy ishlarda asosiy e'tibor topilgan komplekslarni davrini aniqlashga qaratildi.

Uchinchi guruh adabiyotlar asosan mustaqillik yillarida chiqarilgan adabiyotlar bo'lib, ularing ko'pchiligi ko'proq Kitob-Shahrisabz, Qarshi shaharlarning yubiley marosimlariga bag'ishlangan kitoblar va albomlardir[8].

Biz o'rganayotgan mavzu qisman bo'lsada ayrim tadqiqotchilarning ishlarida u yoki bu darajada yoritilgan. Xususan rus turkologlari S.G.Klyashtorniy, L.N.Gumilyov, sug'dshunos olimi O.I.Smirnova, V.A.Livshis, Y.A.Zuev, K.M.Baypakov[9]. larning tadqiqotlarida Janubiy Sug'ddagi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ham to'xtalib o'tilgan.

O.I. Smirnova boshqalardan farqli o'laroq janubiy Sug'ddagi Kesh va Naqshabda kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarga e'tibor qaratgan bo'lsa, V.A.Livshis ushbu viloyatlarning madaniy aloqalari haqida kengroq ma'lumotlar beradi. Mustaqillik yillarida E.V.Rtveladze o'z ilmiy izlanishlarida antik va ilk o'rta asrlar davri Sug'd (asosan Kesh) tarixiga, xususan uning siyosiy tarixi va numizmatikasiga e'tibor qaratgan bo'lsa[10], R.X.Sulaymonov esa Qadimgi Naxshab (Qarshi) vohasining antik va ilk o'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, siyosiy tarix, tarixiy topografiya, hunarmandchilik masalalarini[11] qiyosiy tahlillar orqali ilmiy muomalaga kiritgan. L.C.Baratova qadimgi iqtisodiy (Sug'd tangalari) masalalarga[12], A.Malikov esa ilk o'rta asrlar davri Sug'd yodgorliklaridan topilgan moddiy ashyolar orqali ijtimoiy iqtisodiy va madaniy jarayonlarga e'tibor qaratgan.



Shuningdek Sug'd tarixi bo'yicha yana bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib ular orasida Sh.S.Kamoliddinov, K.Abdullaev, J.Ilyasov, M.Is'hoqov, A.Otaxo'jaev, O'Mavlonov, G.Boboyorov, B.G'oyibov, F.Jumaniyozova, A.Kubatin[13] va boshqalarning tadqiqotlarida Qashqadaryoda kechgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, va etnomadaniy jarayonlarga e'tibor qartilgan, Ularning bir qismi Sug'd vohasida turli hukmdorlar, bir qismi esa So'g'd hunarmandchiligi va iqtisodiyoti bo'yicha, ayrimlari qadimgi yo'llar bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borishgan bo'lsada, ular orasida "Antik va ilk o'rta asrlar davri Kesh viloyatining tarixiy geografiyasi", aholi maskanlarining ayrim toponimlari haqida ham to'xtalib o'tilgani ko'zga tashlanadi. Xorijlik olimlardan Qashqadary tarixi va madaniyati bo'yicha yangi izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, F.Grene va E.De la Bess'er, N.Sims-Villyams, J.K.Skeff, Z.Shtark, Y.Yutaka, S.Kuvayama, M.Inaba, Yuy

Tayshanlarning[14] izlanishlari bu borada olib borilgan tadqiqotlar orasida alohida ajralib turadi. Tahlillarga ko'ra mavzuning o'rganilish darajasini to'la holatda bo'lmasa ham birmuncha yetarli deb hisoblash mumkin. Biroq, Qashqadaryo vohasida joylashgan madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi, saqlanishi va ulardan foydalanish masalalari umumlashma holatda olib o'rganilgan tadqiqotlarning yo'qligi sababli bu borada haligacha dolzarb masalalar mavjudligini e'tirof etish lozimdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda viloyatda Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, Qashqadaryo viloyatda 1468 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan, 1178 ta arxeologiya yodgorliklari, 217 ta arxitektura yodgorliklari, 29 ta diqqatga sazovor joylar va 44 ta monumental yodgorliklar hisoblanadi.

T/r	Tumanlar	Obyektlar soni	Shundan			
			Arxeologiya obyektlari	Arxitektura obyekti	Monumental san'at obyekti	Diqqatga sazovor joy
1	Qarshi shahar	58	28	24	5	1
2	Qarshi tuman	124	103	15	3	3
3	Kasbi tuman	95	79	11	3	2
4	Koson tuman	90	74	11	4	1
5	G'uzor tuman	109	94	9	3	3
6	Mirishkor tuman	17	8	5	3	1



7	Nishon tuman	7	3	1	3	
8	Muborak tuman	8	2	3	2	1
9	Dehqonobod tuman	38	30	4	3	1
10	Qamashi tumani	66	58	3	2	3
11	Shahrisabz shahar	61	29	27	5	
12	Shahrisabz tuman	174	137	34		3
13	Chiroqchi tuman	79	58	16	3	2
14	Yakkabog' tuman	237	194	38	2	3
15	Kitob tuman	305	281	16	3	5
<b>JAMI</b>		<b>1468</b>	<b>1178</b>	<b>217</b>	<b>44</b>	<b>29</b>

### References:

1. История Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 ) Сб документов. – Т.: 1976, 49-50-бетлар.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти девонхонаси архиви, 58-ф, 1-р, 167-иш,, 210-в.
3. Кун А. А. Очерки Шахрисабзского бекства. // Записки императорского Русского географического общества. Спб. 1886. Т., 6-С. 204.
4. Якубовский А.Ю. ГАИМК-ИИМК и археологическое изучение Средней Азии за 20 лет // КСИИМК. VI М. – Л., 1940.
5. Фуломов Я.Г., Ахраров И. Раскопки мавзолея в Яккабаге // ОНУ. №8-9. 1969.
6. Султанов Х.Т. К вопросу истории сложения и локализации мавзолея Шамсадина Куляля в Шахрисабзе // Археология Средней Азии (Тез. док. посвященных 50-ти летию каф. арх. ист. ф-та ТашГУ) Т., 1990.
7. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья -Т.; ўша муаллиф. Культура сельских поселений Южного Согда 111-VI вв.(По материалам исследований в зоне Чимкурганского водохранилища). – Т., 1981.
8. Шахрисабз. Наследия тысячелетий, отв.ред. Э.В.Ртвеладзе и А.С.Сагдуллаев. Т.: 2002.
9. Кияшторний С.Г. Древне тюрские рунические памятники как источник по истории Средней Азии . –М 1964.-215 с.
10. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государство культуры Центраальной Азии Ташкент,; БИ. 2005. 246 с.
11. Сулейманов Р.Х Древний Нахшаб, проблемы цивилизации (Ўзбекистана VII в.дан э.VII в.н. э.) Самарканд Ташкент.: Фан. 2000. 344с. с иллюс.



12. Баратова Л.С. Турк хоқонлиги ва унинг Ўрта Осиё давлатлари билан ўзаро алоқалари// Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. –Тошкент . 2001. –Б. 44-59.
13. Кубатин А. Система титулов Тюрского каганата: Генезис и приемлимость.- Ташкент: Янги нашр, 2016.
14. Taishan Yu. Historiy of the Yeda Tribe (Hephthalites)// Eurasian Studies. Vol. I.- P.066-119.